

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XORIIJY INVESTITSIYALARINI TUTGAN O'RNI

Gadoyev B.B.,
TMI I-3 magistranti

Annotatsiya. Tezisda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarini tutgan o'rni haqida gap boradi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga doir vazifalar keltirilgan. Davlat tomonidan milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya faoliyatini boshqarish uchun bir qator chora-tadbirlarni qo'llash yoritilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, YaIM, xorijiy investor, asosiy kapital, soliq tizimi, amortizatsiya, dotatsiya, subsidiya, subvensi,


Investisiyalar, jumladan, xorijiy investisiyalar, ayniqsa, Respublikamiz uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir mamlakat, avvalo, iqtisodiy rivojlanishga, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishga harakat qiladi. Shu orqali makro va mikro muhitni rivojlantirishga, yalpi ichki mahsulotni oshirishga intiladi. Bunday keng ko'lami ishlarni bajarish uchun xorijiy investitsiyalarini jalb qilish ham katta ahamiyat kasb etadi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 26-maqсадида, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarini jalb etish choralarini ko'rish ko'zda tutilgan¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон

Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetganligini” e’tirof etib, 2023-yildagi eng ustuvor yo‘nalishlardan oltinchisi iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz deb belgilab berdi². Bu esa xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhitni va uni jozibadorligini yanada oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning investitsion muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida qabul qilingan 2018-yil 2-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi. D.G’ozibekov, E.Nosirov ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o‘rmini keskin oshirish, xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlari samarali amalga oshirish bilan bog’liq jarayonlarni tadqiq etiladi³. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 269,9 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 59,1 % yoki 159,6 trln. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 40,9 % yoki 110,3 trln. so‘m moliyalashtirildi. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 41,5 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi

³ G’ozibekov D, Nosirov E. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: “Iqtisod-Moliya”. 2007



1-rasm: Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da

Davlat tomonidan milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya faoliyatini boshqarish uchun bir qator chora-tadbirlarni qo'llash, ularni hayotga tadbiq etish asosida maqsadli dasturlar orqali amalga oshiriladi. Bu chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Soliq tizimini qulaylashtirish, ya'ni soliq subyektlari, obyektlari va stavkalarini tabaqlashtirish va soliq imtiyozlarini berish.
2. Amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, shu jumladan tezlashtirilgan amartizatsiya siyosatini qo'llash hamda amortizatsiya imtiyozlarini berish.
3. Ayrim hududlar, tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar orqali yordam ko'rsatish.

4. Kredit siyosatini, davlatning norma va standartlarining antimonopoly tadbirlarini ishlab chiqish, davlat mulkini xususiylashtirish va narxo-navo siyosatini o'tkazish.
5. Yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash.
6. Investitsiya loyihamalarini ekspertizadan o'tkazish davlat dasturlarini kiritish.
7. Investitsiya loyihamalarining monitoringini o'tkazish va mexanizmini ishlab chiqish.
8. Zarur hollarda yoki qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini to'xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

1-jadval

2022-2026-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari.⁴

T/r	Moliyalashtirish manbalari	2022 - 2026-yillarda jami	shundan:				
			2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil
	Jami kapital qo'yilmalar	2 025 200	298 772	346 848	400 318	457 659	521 603
<i>shu jumladan:</i>							
1.	Markazlashgan investitsiyalar:	344 309	50 767	61 480	72 378	76 106	83 579
1.1.	Budjet mablag'lari	136 669	23 790	25 017	28 074	29 400	30 388
1.2.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari (so'mda)	17 614	1 613,2	3 100	3 450	4 514	4 937
	<i>mln. AQSh dollarida</i>	<i>1 352</i>	<i>142*</i>	<i>258</i>	<i>271</i>	<i>335</i>	<i>345</i>
1.3.	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar (so'mda)	190 027	25 363	33 364	40 854	42 192	48 255
	<i>mln. AQSh dollarida</i>	<i>14 738</i>	<i>2 240</i>	<i>2 780</i>	<i>3 212</i>	<i>3 129</i>	<i>3 376</i>
2.	Markazlashmagan investitsiyalar:	1 680 891	248 006	285 368	327 940	381 553	438 024

⁴ www.lex.uz

2.1.	Korxona mablag‘lari, shu jumladan, korxonalarning o‘z ixtiyorida qoldiriladigan soliqlar	478 234	69 433	76 926	92 465	110 384	129 026
2.2.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	338 864	49 606	53 696	64 861	79 242	91 458
2.3.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so‘mida)	714 278	107 621	130 186	141 024	157 094	178 353
	<i>mln. AQSh dollarida</i>	<i>55 572</i>	<i>9 506</i>	<i>10 849</i>	<i>11 087</i>	<i>11 651</i>	<i>12 479</i>
2.4.	Aholi mablag‘lari	149 515	21 346	24 560	29 590	34 833	39 187

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash borasida qabul qilgan qonunlari, qarorlarini o‘rganish, kerakli jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagи PF-6042-son va “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘sishma chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni
4. G’ozibekov D, Nosirov E. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: “Iqtisod-Moliya”. 2007
5. Vahabov A.V., Xajibakiyev Sh,X., Muminov N.G “Xorijiy investitsiyalar” o‘quv qo‘llanma – T.: Moliya, 2010.
6. Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, 2018 yil
7. www.stat.uz
8. www.lex.uz